

Xandaqning hikoyasi



14:58 / 24.10.2023 2832

Assalom alaykum, men ham Allohning haq Payg'ambari Muhammad alayhissalom haqlarida sizlarga hikoya qilib bermoqchiman. Avvalo o'zimni tanishtiray, men Xandaqman. Ba'zilar meni bilmasligi mumkin. Biz xandaqlar qadimda juda mashhur bo'lganmiz. Katta-katta shaharlar va qal'alar atrofini dushmanlardan ihota qilganmiz. Odamlar bizni chuqur qilib kavlashardi-da, ichimizga suv to'latib qo'yishardi. Xandaq bilan o'ralgan shaharlarni dushman zabt etishi qiyin kechardi. Lekin Arabiston tomonlarda shaharlarni xandaqlar bilan muhofaza qilish urf bo'lmagan edi. Yerlari tosh-metin, keyin xandaqni to'latishga oqar suvlar ham yo'q edi.

U paytlarda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Madinada yashar edilar. Bir kuni u kishi Abu Sufyon boshliq kofirlar Madinaga yurish boshlamoqchiligi

haqida xunuk xabar eshitdilar. Tezda lashkarboshilarini maslahatga to'pladilar. Madina shahri muhofaza devorlari bilan o'ralmagan edi. Shaharning uch tomonida zich qurilgan uylar va xurmozorlar bo'lib, dushman bu tomondan hujum qila olmas edi. Faqat shimol tarafi ochiq, yalanglik edi. Xavf ana shu tarafdin bo'lishi mumkin edi. Maslahatga to'planganlar orasida Salmon Forsiy degan sahoba bor edi. U kishi eronlik bo'lib, Eronda shaharlar xandaqlar bilan o'ralishini, undan otlar, tuyalar, jangchi fillar, hatto piyodalar ham o'ta olmasligini aytib qoldi. Bu gap Payg'ambarimizga ma'qul tushdi. Chunki dushman askarlari ot va tuyalarga mingan edilar-da.

Shunday qilib, zudlik bilan xandaqni, ya'ni meni qazish ishlari boshlanib ketdi. Yer zarang edi, cho'kich, ketmon, kuraklar yetishmas edi. Axir odamlar bunaqa ishlarni qilib o'rganmagan edilar-da. Buning ustiga dushman tobora yaqinlashib kelardi.

Xandaq qazishda Payg'ambarimiz alayhissalomning o'zlari ham tinim bilmay ishladilar. Muborak qo'llariga cho'kich tutib, gursillatib zaminga ursalar, tuproq palaxsa-palaxsa bo'lib ko'chib chiqardi. Ha, ish rosa jadal edi, odamlar tun-u kun g'ayrat qilardi. Nihoyat, mo'ljalidagi ish oxiriga yetdi. Bu orada kofirlar ham Madinaga yetib kelishdi. Kelishdi-yu, hang-u mang bo'lib qolishdi. Ha, men ularning yo'lini kesib qo'ygan edim. Ustimga ko'prik quray deyishsa bir quloch ham yog'ochlari yo'q. Tuproq bilan to'ldiray deyishsa na cho'kich, na bir qurollari bor. Bunaqa tadbirni dushman xayoliga ham keltirmagan edi! Rosa boshlari qotdi. Oxiri alamlaridan nima qilishni bilmay, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning lashkarlarini uzoqdan kamon o'qiga tuta boshlashdi. Dushman Rasulullohning Xandaq jangini o'ylab topganlaridan juda taajjubda, mislsiz alamda edi.

Ertasi kuni dushmanning chavandoz bahodirlaridan beshtasi ustimdan ot sakratib o'tishga muvaffaq bo'ldi. Ha, otlari uchqur, abjir edi. Ulardan Amr ibn Abduvvud degani Islom lashkarlariga qarab qichqirdi.

- Ey, menga talabgorlaring bormi? Shunday mard topilsa maydonga chiqsin!
Nimagadir bu kishiga ha deganda talabgor chiqmayotgan edi. Bundan bildimki, Ibn Abduvvud kofirlarning eng kuchli, ishongan bahodirlaridan. U uch bora qichqirgandan keyin maydonda hazrati Ali paydo bo'ldilar. U kishi otda emas piyoda edilar. Bir-bir bosib Ibn Abduvvudning ro'parasiga keldilar. Ikkovlari

orasida shunday gap-so'z bo'lib o'tdi.

- Ey, Ibn Abduvvud, senga uch shartim bor. Albatta, sen ulardan birini qabul qilasan.

- Gapir, ey Ali, qulog'im senda!

- Iymon keltirib, Islomga kirgin!

- Bu ishni mendan kutma. Hargiz Islomga kirmayman. Ikkinchi shartingni ayt!

- Iymon keltirmasang, urushni bas qilib orqangga qayt! Shunday qilsang, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bashorat qilganlaridek, baxtli kishilardan bo'lasan, urushda ajaling yetmaydi.

- Sening bu sharting xotinlarga kulgu bo'larlik ishdir. Bu shartni qo'y, keyingisiga o't!

- Unda o'zingdan ko'r, uchinchi shartim jang!

- Ey, Ali bilib qo'y, Arab dunyosida bu ish bilan meni hech kim qo'rqita olmaydi. Jang qilish mening kasbimdir, Muhammadni o'ldirish uchun ont ichganman. Bunga fursat yetdi.

Shunday deb Ibn Abduvvud otidan tushdi, ikki o'rtada olishuv boshlandi. Ibn Abduvvud birinchi bo'lib hazrati Aliga qilich soldi. O'tkir yaroq hazrati Alining dubulg'alarini kesib, boshlariga andek shikast yetkazdi. Biroq hazrati Ali ham javob zarbini shundoq berdilarki, yaroqlari Ibn Abduvvudning dubulg'asini kesib, unga yaxshigina shikast yetkazdi. Ikkinchi zarbadan so'ng dushman mag'lub etildi. Bu orada kofirlar sarosimaga tushib qoldilar. Ular eng ishongan bahodirlari, lashkarboshidan ajragan edilar. Ot sakratib o'tgan qolgan to'rttasi orqalariga qaramay qochishdi. Ulardan Navfal ibn Abdulloh deganlari ustimdan otini sakrata olmay, yiqildi va hazrati Alining qilichlaridan jon berdi.

Makka kofirlari bu ishdan yomon fol olishdi va ot sakratib o'tishdan voz kechishdi. Bu orada Allohning qudrati bilan dushmanning ichidan ola chiqib, qo'shin bir-birlari bilan teskari bo'lib qoldi. Ana shu asnoda Islom qo'shiniga Allohdan yordam yetdi. Kuchli bo'ron qo'zg'alib, kofirlarning oziq-ovqatini, o'tov va chodirlarini, hatto hayvonlarga beriladigan yem-xashaklarigacha uchirib ketdi.

Yana shundoq zim-ziyo tun cho'kdiki, bunaqasi Arab sahrosida ilgari bo'lmagan edi. Odam yonida turgan odamni tanimas edi. Ustiga-ustak qattiq sovuq turib,

yoz kunida suvlari muzladi. Dushman askarlari sovuq urgan maysadek bo'lib qoldi. Men dushmanga bu azoblar yetguncha Rasulloh sollallohu alayhi vasallamning Allohga bunday deb iltijo qilganliklariga guvoh bo'lgan edim:

«Ey bor Xudo-yo, barcha payg'ambarga kitob tushiruvchi o'zingsan! Oxirat kunida hammadan tezlik bilan hisob olguvchidirsan! Qudrating ulug'dir, bu kelgan ko'pchilik dushmanlarni o'zing tarqatgin!»

Shundoq bo'ldi, orqaga qarab qochish mashqini Makka kofirlarining qo'mondoni Abu Sufiyonning o'zi boshlab berdi. O'n ming kishilik dushman o'z-o'zidan daf bo'ldi.

Ana shu voqeadan keyin Islom tarixidagi bu jang mening nomim bilan atalib, «Xandaq urushi» deyiladigan bo'ldi.

Erkin bobo
«Hilol» jurnalining 3(48) sonidan